

LINGVOKULTUROLOGIYADA BADIY MATNNI O‘RGANISHNING NAZARIY VA AMALIY MASALALARI

Muslimjon NASIROV,

Qo‘qon DU, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasasi o‘qituvchisi, f.f.f.d (PhD)

E-mail: muslimbeknosirov1995@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677386>

Annotatsiya. *Mazkur maqolada badiiy matnning lingvokulturologik xususiyatlari antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilingan. Tilning jamoaviy va individual tabiati, uning inson tafakkuri, madaniyati va ijtimoiy ehtiyojlari bilan uzviy bog‘liqligi yoritilib, badiiy matn orqali milliy-madaniy ma‘no va tasavvurlarni ochib berish masalalari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *lingvokulturologiya, antropotsentrizm, badiiy matn, milliy mentalitet, frazeologizm, metafora, o‘xshatish, lingvistik ong, madaniy kod, til va madaniyat.*

Аннотация. *В данной статье лингвокультурологические особенности художественного текста анализируются на основе антропоцентрического подхода. Освещаются коллективная и индивидуальная природа языка, его неразрывная связь с человеческим мышлением, культурой и социальными потребностями, а также рассматриваются вопросы раскрытия национально-культурных смыслов и представлений посредством художественного текста.*

Ключевые слова: *лингвокультурология, антропоцентризм, художественный текст, национальный менталитет, фразеологизм, метафора, сравнение, лингвистическое сознание, культурный код, язык и культура.*

Abstract. *This article analyzes the linguocultural features of literary texts based on an anthropocentric approach. It highlights the collective and individual nature of language, its inseparable connection with human thinking, culture, and social needs, and examines the issues of revealing national and cultural meanings and perceptions through literary texts.*

Keywords: *linguoculturology, anthropocentrism, literary text, national mentality, phraseological unit, metaphor, simile, linguistic consciousness, cultural code, language and culture.*

Til – jamoaviy xarakterga ega bo‘lgan, o‘z navbatida, har bir shaxsning individual imkoniyatlarini aks ettiruvchi murakkab tuzilma bo‘lib, u o‘zida ko‘plab ma‘lumotlarni saqlaydi. Tilning jamoaviy hamda individual xususiyatlarini tadqiq etish tilshunoslikda har doim bosh masalalardan bo‘lib kelgan.

Zamonaviy tilshunoslikda tilni inson omili bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganishga bo‘lgan e‘tibor tobora ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan shakllangan lingvokulturologiya yo‘nalishi til va madaniyatning o‘zaro munosabatini, milliy mentalitet hamda dunyoqarashning til birliklarida aks etishini tadqiq etuvchi muhim ilmiy sohalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, badiiy matn lingvokulturologik tadqiqotlar uchun boy material manbai bo‘lib, unda xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlar, qadriyatlar va estetik qarashlari mujassam holda namoyon bo‘ladi.



Badiiy matni lingvokulturologik yondashuv asosida o‘rganish nafaqat til birliklarining semantik va uslubiy xususiyatlarini, balki ular orqali ifodalangan madaniy kodlar, ramzlar va konseptlarni aniqlash imkonini beradi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv til vositasida shakllanadigan milliy ong va tafakkur mexanizmlarini anglashga xizmat qiladi. Mazkur maqolada lingvokulturologiyada badiiy matni o‘rganishning nazariy asoslari hamda amaliy tahlil usullari yoritilib, ularning til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib berishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Bugungi kun tilshunosligida til birliklarining shakllanishida asosiy omillardan biri tildan foydalanuvchi shaxs ekani e’tirof etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan zamonaviy tilshunoslikda olib borilayotgan ilmiy izlanishlar ichida antropotsentrik yondashuv yetakchi o‘rinni egallamoqda. Antropotsentrizm tamoyiliga bir qancha ta’riflar berilgan bo‘lib, Y.S.Kubryakova uni quyidagicha izohlaydi: “Barcha nazariy fikrlarning asosiy burchagiga insonni qo‘yish tamoyiliga muvofiq inson nafaqat u yoki bu hodisalarning tahliliga jalb etiladi, balki u mazkur tahlil va yakuniy maqsadlar istiqbolini ham belgilab beradi” [1. 110]. Anglashiladiki, ushbu yondashuvda til odamlar o‘rtasidagi kommunikatsiya vositasi sifatida o‘rganiladi va tilning o‘zi inson psixologiyasi, madaniyati va ijtimoiy ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq deb qaraladi. Shuningdek, bu yo‘nalish, tilning ichki tizimiga emas, balki u orqali qanday g‘oyalar va ma’lumotlar yetkazilishini tadqiq etadi. Antropotsentrizm so‘ziga berilgan quyidagi ta’rif ham fikrimizni isbotlaydi. Antropotsentrizm so‘zi yunoncha “anthropos” – “odam” hamda “lotincha” “centrum” – markaz ma’nosini bildiruvchi so‘zlar birikuvidan hosil bo‘lgan [2. 120].

Badiiy matn til orqali xalqning madaniyati, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim manba hisoblanadi. Shu bois lingvokulturologiya doirasida badiiy matni o‘rganish til birliklari orqali ifodalangan milliy-madaniy ma’no va tasavvurlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy matnda aks etgan lingvokulturologik xususiyatlar xalqning mentaliteti, an’analari hamda olam haqidagi tasavvurlarini yoritib beradi. Mazkur maqolada badiiy matnning lingvokulturologik jihatlari va ularning til hamda madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ochib berishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Badiiy matnlarni lingvokulturologik yondashuv asosida tahlil qilinganda quyidagi jihatlarga alohida e’tibor qaratilmoqda:

- matn tarkibidagi lingvistik birliklarning milliy madaniyatni ifoda etishi;
- o‘zbek xalq og‘zaki ijodidagi maqollar, aforizmlar va timsollarning ma’no qatlamlarida milliy mentalitetning aks etishi;



- badiiy matnda madaniy kodlarning, ya'ni ramzlar va metaforalarning qo'llanilishi.

O'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya sohasida salmoqli tadqiqotlar olib borgan tilshunos Sh.Usmonova hisoblanadi. U o'zining “Lingvokulturologiya” nomli darsligining “Lingvomadaniy birliklar tahlili” nomli bobida badiiy matn tarkibida qo'llangan frazeologik birliklar ma'no mundarijasida uchrovchi milliy-madaniy konnotatsiyaning lingvokulturologik tahlili masalasiga alohida to'xtalib o'tgan [3. 248]. Ushbu tadqiqotda muallif M.Mirtojiyev, N.Mahmudov, I.Qo'chqortoyev tadqiqotlariga murojaat qilgan holda A.Qahhor asarlarida uchrovchi iboralar tarkibida madaniyatning “izi” masalasiga alohida to'xtalgan. Shu bilan birga, ushbu tadqiqotda xalq og'zaki ijodiyoti, dostonlar, turli-tuman afsona va rivoyatlarning frazeologizmlarni shakllantirish, ularga sayqal berish va xalq mulkiga aylantirish vazifasi “Alpomish”, “Go'ro'g'li”, “Rustamxon”, “Kuntug'mish” kabi dostonlar misolida ko'rsatib o'tilgan. Xususan, dostonlarda ishlatilgan “gap yetaklamoq”, “qulog'ini tishlagan”, “boshlarini qovushtirmoq”, “boshlarini qo'shmoq”, “boshini ikkita qilmoq”, “bir yostiqa bosh qo'ymoq” kabi frazemalar ma'no mundarijasidagi milliy-madaniy konnotatsiya tahlil qilingan. Shuningdek, tadqiqotchi lingvomadaniy ma'lumot tashuvchi yana bir til hodisasi hisoblangan o'xshatishlarga ham alohida to'xtalgan. Ma'lumki, o'zbek tilshunosligida o'xshatishlarning individual-erkin hamda umumxalq-turg'un (doimiy) o'xshatish turlari farqlanadi [4. 6]. Tadqiqotchining fikriga ko'ra, “turg'un o'xshatishlar milliy ong jumbog'ini yechishga imkon beradigan yorqin obrazli vositalardan biri hisoblangani” uchun lingvokulturologiyani ko'proq turg'un o'xshatishlar qiziqtiradi [5. 133-134]. Lekin shuni unutmasligimiz kerakki, individual-erkin o'xshatishlar bevosita muallifning o'ziga xos o'xshatishlari hisoblangani uchun bu turdagi o'xshatishlar antropotsentrik tilshunoslik uchun tadqiqot obyekti bo'la oladi. Nazar Eshonqulning “Shamolni tutib bo'lmaydi” hikoyasidan olingan quyidagi parchada individual-erkin o'xshatishning ajoyib namunasini ko'rishimiz mumkin: *“bir paytlar Tersotaning ko'rki va g'ururi bo'lib turgan bu uy birdan ko'rimsiz qiyofaga kirdi va endi Bayna momo kabi uy ham qishloqdagi uylar oldida yolg'izlanib qolgandi”* (“Shamolni tutib bo'lmaydi”) [6. 331]. Parchada Bayna momoning turmush o'rtog'i va o'g'lining o'limidan keyingi yolg'izlikdagi holati qarovsiz qolib ketgan o'z uyiga o'xshatilganini ko'rishimiz mumkin. Muallif ushbu parcha orqali o'quvchi uchun mavhum, tafakkur qilish qiyin bo'lgan ruhiy holat manzarasini o'quvchi uchun tasavvur qilish mumkin bo'lgan darajada moddiylashtirib bergan. O'zbek milliy mentalitetida uy, ota hovli turmushdagi xotiralar jamlanuvchi eng muhim tushuncha hisoblanadi. Muallif oila



a'zolarini yo'qotgan Bayna momoning ruhiy holatini yanada aniqroq tasavvur qilish uchun u oila a'zolari bilan yashgan uy ham yolg'izlikda qolganini individual-erkin o'xshatish orqali ta'kidlamoqda. Ushbu o'xshatishning paydo bo'lishida assotsiativ tafakkur, muallifning kognitiv bilimlari muhim rol o'ynagan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy matn lingvokulturologik yondashuvda til va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ochib beruvchi muhim tadqiqot obyektidir. Antropotsentrik tamoyil asosida olib borilgan tahlillar til birliklari ortida yashiringan milliy-madaniy ma'nolarni, inson tafakkuri va dunyoqarashining til orqali ifodalanishini chuqurroq anglash imkonini beradi. Ayniqsa, frazeologik birliklar va o'xshatishlar xalqning tarixiy tajribasi, qadriyatlari hamda mental xususiyatlarini yoritishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М.: Наука, 1986.
2. <http://ph.ras.ru/elib0215html>.
3. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Alisher Navoiy Nomidagi TDO'TAU. – Toshkent: 2019. – 248 b.
4. Mahmudov N. Xudoyberganova D. O'zbek tili o'xshatishlarining izohli lug'ati. –Toshkent: Ma'naviyat, 2013. – B. 6.
5. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учебное пособие для студентов высших учебных заведений. –М., 2001 – С. 133-134.
6. Эшонкул Н. Сайланма. I жилд. – Тошкент: Akademnashr, 2022. – 512 б.